

## **HAR BIR BEMOR OG'ZIDAGI INFEKSIYA MANBAI STAMATALOGNING JAMOAT SALOMATLIGIDAGI ROLI QAYTA QARALMOQDA**

***Allamurodova Baxtigul Boymurodovna***

*Termiz iqtisodiyot va servis Universiteti Tibbiyot fakulteti*

*Stomatologiya yo'naliishi 3 - bosqich talabasi*

*allamurodovabaxtigul4@gmail.com*

***Ilmiy rahbar: Saidov Jasur Baxtiyorovich***

*Tibbiy klinik fanlar kafedrasi mudiri o'qituvchi*

*jasur.saidov.8778@gmail.com*

**Annotatsiya:** So'nggi tadqiqotlar og'iz bo'shlig'i sog'lig'i va umumiy organizm holati o'rtasidagi bog'liqlikni ochib bermoqda. Stomatolog faqat tishni davolovchi emas, balki infeksiyalarning tarqalish yo'llarini nazorat qiluvchi jamoat salomatligi himoyachisiga aylanishi kerak. Ushbu maqolada stomatologning funksiyasi kengayib borayotgan sharoitda qanday o'zgarayotgani, infeksiya manbaini erta aniqlash va profilaktika qilishdagi o'rni ilmiy asosda ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** og'iz bo'shlig'i salomatligi, infeksiya manbai, stomatologik profilaktika, jamoat salomatligi, og'iz mikroflorasi, infektion nazorat, sog'lom turmush tarzi, halitoz, periodontal kasalliklar, og'iz gigiyenasi

Og'iz bo'shlig'i – bu organizmga kiruvchi “esik” bo'lib, undagi mikroflora butun organizmga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ayniqsa surunkali periodontit, kariyes, stomatit kabi kasalliklar yurak, buyrak, bo'g'im va me'da-ichak yo'llari kasalliklarini qo'zg'atuvchi mikroblarning asosiy manbai sifatida ko'rilmoxda. Shu sababli, stomatologning vazifasi tishlarni davolash bilan cheklanmasdan, infeksiya nazorati, erta skrining va jamoaviy sog'lomlashtirish ishlarini olib borishni ham o'z ichiga olishi kerak.

Og'iz bo'shlig'i – inson tanasidagi eng yirik va eng ko'p mikroorganizmlarga ega bo'lgan tabiiy ekotizimlardan biridir. U yerda 700 dan ortiq turdag'i bakteriyalar, viruslar, zamburug'lar va boshqa mikroblar yashaydi. Sog'lom sharoitda bu mikroflora muvozanatda bo'lib, immunitet bilan uyg'un ishlaydi. Biroq og'iz gigiyenasining yetarli emasligi, noto'g'ri parhez, surunkali kasalliklar yoki beparvo munosabat tufayli bu muvozanat buziladi va og'iz bo'shlig'i turli infeksiyalarning doimiy manbasiga aylanadi.

So'nggi yillarda sog'lijni saqlash tizimida “og'iz salomatligi – umumiy salomatlikning ajralmas qismi” degan konsepsiaga asoslangan yondashuv shakllanmoqda. Bu esa stomatologyaning rolini tubdan o'zgartirib, uni shunchaki

estetik yoki mahalliy muammoni hal qiluvchi soha emas, balki jamoat salomatligi strategiyasining muhim bo‘g‘ini sifatida ko‘rishga olib keldi.

Shunday ekan, har bir stomatolog o‘z faoliyatini infeksiya manbalarini aniqlash va ularni bartaraf etish orqali kasalliklarning tarqalishini oldini oluvchi profilaktik mutaxassis sifatida olib borishi zarur. Mazkur maqola stomatologning jamoat salomatligidagi roli qanday o‘zgarayotganini, bu jarayonda og‘izdagi infeksiyaning qanchalik xavfli bo‘lishi mumkinligini ilmiy asosda tahlil qiladi.

Tadqiqot 2024-yil davomida 2 ta stomatologiya klinikasida olib borildi. 250 nafar bemor (18–65 yosh oralig‘ida) klinik ko‘rikdan o‘tkazildi. Shulardan 120 nafarida yurak-qon tomir, nafas yo‘llari yoki buyrak kasalliklari bilan bog‘liq anamnez bor edi. Barcha bemorlarning og‘iz bo‘shlig‘i mikroflorasi, milk holati, kariyes darajasi va til yuzasidagi biofilm ko‘rsatkichlari o‘rganildi. Stomatoglarning jamoat salomatligiga doir bilim va amaliyot holati alohida so‘rovnama asosida baholandi.

- 60% bemorlarning og‘zida *Streptococcus mutans*, *Porphyromonas gingivalis*, yoki *Candida albicans* aniqlangan.

- Yurak yoki buyrak muammosi bo‘lgan bemorlarning 82% da og‘izdagi infeksion o‘choqlar mavjud edi.

- Stomatoglarning atigi 27% qismi o‘zini jamoat salomatligi subyekti deb hisoblaydi.

- Muntazam profilaktik ko‘rikka keladigan aholining ulushi 15% dan oshmagan.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, stomatologlar hali ham o‘z rolini tor doirada – ya’ni faqat individual bemor davolash bilan cheklab kelishmoqda. Biroq zamonaviy ilmiy tibbiyot stomatologni sog‘liqni saqlash tizimining muhim halqasi sifatida ko‘rmoqda. Og‘iz bo‘shlig‘idagi infeksiyalar uzoq davom etgan hollarda nafaqat og‘izdagi, balki yurak mushagi yallig‘lanishi (*endokardit*), diabetning og‘irlashishi, hatto homiladorlikdagi xavflarni keltirib chiqaradi.

Shu sababli stomatologning vazifasi:

- Infeksion nazoratga e’tibor qaratish,
- Har bir bemorda og‘iz orqali sistematik infeksiya xavfini aniqlash,
- Aholi bilan gigiyena, parhez, va chayqov vositalari bo‘yicha ma’rifiy ishlarda faol ishtirok etishdan iborat bo‘lishi kerak.

Bu – stomatologiyaning terapeutik yondashuvdan jamoat salomatligi yondashuviga o‘tishini anglatadi.

Zamonaviy davr stomatologga yangi mas’uliyatlar yuklamoqda: u bemor og‘zidagi infeksiya manbasini erta aniqlovchi va uni nafaqat davolovchi, balki butun jamiyat salomatligini ta’minlovchi mutaxassisiga aylanishi lozim. Har bir stomatolog o‘z faoliyatini individual davolashdan ko‘ra, jamiyat salomatligini mustahkamlashga qaratilgan yondashuv asosida olib borishi kerak. Shu bois stomatologiyaning profilaktik va ijtimoiy yo‘nalishlarini rivojlantirish strategik zaruratga aylanmoqda.

Yuqoridagi tahlillar asosida quyidagilarga e'tibor qaratish zarur:

1. Har bir og'iz bo'shlig'i – potensial infeksiya manbai hisoblanadi. Bu holat faqat bemorning o'ziga emas, balki atrofdagilarga ham xavf tug'diradi.

2. Stomatolog – bu endilikda faqat tish shifokori emas, balki infektsiyalarning profilaktikasi, aholi sog'lig'ini mustahkamlash, gigiyena madaniyatini oshirish bo'yicha faol ishtirokchi hisoblanadi.

3. Tibbiy ta'lrim tizimida stomatologik profilaktika, epidemiologiya va gigiyena fanlari asosida stomatologlarni jamoat salomatligi yondashuvi asosida tayyorlash lozim.

4. Aholi orasida og'iz gigiyenasi, erta ko'rik va sog'lom ovqatlanish madaniyatini shakllantirish uchun omma orasida tish shifokorlarining targ'ibotchilik roli kuchaytirilishi lozim.

Shu bois, stomatologik xizmatni nafaqat davolovchi, balki profilaktik, ijtimoiy va sog'lomlashtiruvchi yo'nalishlar bilan boyitish – zamонавија sog'liqni saqlash siyosatining ajralmas qismiga aylanishi zarur. Har bir bemorni davolashda emas, kasallikning oldini olishda faol bo'lish – stomatologyaning yangi paradigmadir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. World Health Organization (WHO). (2023). *Global Oral Health Status Report*.
2. Nazir, M.A. (2021). "Role of Dentistry in Public Health". *Journal of International Oral Health*, 13(2), 104–110.
3. Saidov J.B. (2022). "Og'iz bo'shlig'i infeksiyalari va umumiy salomatlik". *Sog'liqni Saqlash Ilmi*, 5(1), 33–38.
4. American Dental Association (ADA). (2023). *Infection Control in Dental Practice*.
5. Mirzayeva D.M. (2023). "Stomatologning profilaktik roli va sog'lomlashtirish metodikasi". *Tibbiy innovatsiyalar jurnali*, 7(2), 19–24.
6. Tonetti, M.S. et al. (2019). "Oral Health and Systemic Health: Emerging Links". *Journal of Clinical Periodontology*, 46(Suppl 21), S1–S3.